Увеличившаяся (приращённая) часть ВВП ( $\Delta$ ВВП) это разность между объемом ВВП, произведенном в отчетном году ( $ВВП_2$ ) и объемом ВВП базового года ( $ВВП_1$ ):

$$\Delta \text{ВВП} = \text{ВВП}_2 - \text{ВВП}_1$$

Абсолютный прирост ВВП достигается за счет увеличения расходов на производство ( $\Delta W$ ). Увеличение расходов ( $\Delta W$ ) это разность между объемом затрат на производство ВВП в текущем отчетном году и объемом затрат на производство ВВП в базовом году, то есть:

$$\Delta W = \Delta W_2 - \Delta W_1$$

С этой точки зрения эффективность инновационной деятельности определяется в соотношении  $\Delta$ ВВП к Динновационным затратам, а его уровень выражается в процентах:

$$\frac{\text{Эффективность инновационного экономического роста}}{\Delta \text{ВВП}} = \frac{\Delta \text{ВВП}}{\Delta \text{инновационные затраты}}$$

Эта формула выражает прирост ВВП за счет затрат на инновационную деятельность.

Если это соотношение выразить в обратном виде, то можно точно оценить эффективность экономического роста:

<b>Оценка эффективности инновационного экономического роста</b>	<b>Δ инновационные затраты</b>	<b>Δ ВВП</b>
---	------------------------------------	--------------

Такая оценка выражает прирост ВВП на единицу инновационных затрат.

Повышение эффективности инновационного экономического роста зависит не только от абсолютного прироста ВВП, но и от достижения инновационного развития на основе направления инвестиций на активизацию инновационной деятельности, именно на этой базе обеспечивается устойчивое экономическое развитие

Отсутствие конкурентоспособных на мировом рынке технологий отечественных продуктов, медленные темпы процессов диверсификации и реструктуризации в промышленной отрасли также считаются серьезными проблемами на пути перехода к инновационной экономике.

Существует разрыв между инновациями, разработанными в стране и их практическим применением, коммерциализацией. Это говорит об отсутствии эффективного механизма внедрения инновационных идей и разработок в производство.

### **Выводы и предложения**

Анализ теоретических аспектов влияния инвестиций и инноваций на экономической рост позволил сформулировать следующие предложения:

1. Необходимо восстановить связь между наукой и производством, обеспечить их прочную взаимосвязь. Важным видится развитие международного и регионального научно-технического сотрудничества. То есть нужно учесть невысокий уровень внутренней потребности в научных разработках в национальной экономике. В свою очередь такое состояние уменьшает экономическую заинтересованность в научных разработках и отрицательно влияет на развитие этого направления. В этом контексте целесообразно дальнейшее углубление международных связей научно-исследовательских институтов и центров.

2. Необходимо обеспечить участие в инновационной деятельности не только научно-исследовательских учреждений, проектно-конструкторских бюро, но и всех физических, юридических лиц. Разработка новых технологий и внедрение их в производство – сложный процесс, в этом процессе необходимо наладить эффективный механизм взаимовыгодного партнерства ученых, предпринимателей и государства. Необходимо добиваться открытости экономики, формировать класс владельцев частного капитала, частных

инвесторов, вносящих инвестиции в инновации и развивать международные экономические связи.

3. Необходимо доработать следующие аспекты механизма обеспечения устойчивого роста на основе инновационного развития:

- необходимо срочно адаптировать налоговую, таможенно-тарифную, финансово-кредитную систему государственного регулирования к требованиям модели инновационного развития и темпам развития;

- необходимо разработать систему особого стимулирующего подхода к субъектам производителям инновационной продукции, иностранным инвесторам, национальным товаропроизводителям, предпринимателям и государственным организациям по их налогообложению, применению тарифно-таможенной политики, кредитовании.

4. Предоставление со стороны государства вышеназванных условий для привлечения негосударственных, некоммерческих организаций и широкого слоя предпринимателей к масштабному производству инновационной продукции будет способствовать активизации рыночных механизмов и рычагов обеспечения устойчивого экономического роста, их эффективному воздействию и в конечном итоге интенсификации экономического роста.

#### **Список использованных литератур:**

1. Терешина Н.П., Подсорин В.А. Экономическая оценка инвестиций: учебник.- М.: ФГБОУ «Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте», 2016.-272 с.
2. Кондратьев Н. Д.Большие циклы конъюнктуры // Вопросы конъюнктуры. 1925. № 1.
3. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1983.с..278-285.
4. Кузнец С. Современный экономический рост: результаты исследований и размышлений. Нобелевская лекция стр 105.// Нобелевские лауреаты по экономике: взгляд из России. Под ред. Ю.В. Яковца. Спб.: Гуманистика, 2003.
5. Mardievna S. G., Boltaevna S. F. The role of public-private partnerships in attracting investment projects in the transport sector //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. – 2021. – T. 27. – №. 6
6. F.B. Shakirova, S.B Sattorova STRATEGY OF ENTERING INTERNATIONAL MARKETS OF" UZBEKISTAN RAILWAYS" JSC INDUSTRIAL ENTERPRISES FBSSB Sattorova - Confrencea, 2022

**IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI*****Shakirova F.B.****Toshkent davlat transport universiteti dotsenti****Maxmudova Parizoda****Toshkent davlat transport universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirishda raqamli texnologiyalarning zarurligi va mohiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqamli texnologiyalari.

Jahonda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati va davlat boshqaruvi tuzilishini sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Chunonchi raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va ularning iqtisodiy-ijtimoiy hayotda keng tatbiq etish sup'atlarining turlichaligi oqibatida mamlakatlar o'rtacidagi rivojlanish tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Dunyoda «raqamli iqtisodiyot»ning o'sish sup'atlari deyarli 15,5 foizni tashkil etadi. Taraqqiy etgan davlatlarda «raqamli iqtisodiyot»ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirning o'zida «raqamli iqtisodiyot»ning joriy qilinishidan juda katta foyda ko'rmoqda. Jumladan, AQSh yiliga 400 milliard AQSh dollaridan ko'proq «raqamli xizmat»larni ekrpopt qilmoqda. 2025 yilgacha AQSh sanoat sohacini «raqamlashtirish»dan qo'shimcha 20 trln. AQSh dollar dapomad olishi kutilmoqda». Pandemiya oqibatida esa bu ko'rca tkichlar albatta pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi.

Raqamli texnologiyalar ko'plab sohalarni, jumladan, biznes, transport va logistika tizimini qayta shakllantirmoqda [4]. Temir yo'lni raqamlashtirish ham raqamli iqtisodiyotning paydo bo'lishining oqibatlaridan biridir.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, xususan, ilg'or raqamli texnologiyalarni davlat va xo'jalik boshqaruviga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori [1] hamda “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga [2] muvofiq, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar etib quyidagilar belgilandi:

- investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan mayning (turli kriptovalyutalarda yangi birliklar va komissiya yig'implari formatida mukofot olish

imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi bloklar yaratish bo'yicha faoliyat), smart-kontrakt (raqamli tranzaktsiyalarni avtomatik tartibda amalgalashirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma), konsalting, emissiya, ayirkoshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'ortalash, kraud-fanding (jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek, "blokcheyn" texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish;

- "blokcheyn" texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasida zamonaliv axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amaliy ish ko'nikmalariga ega malakali kadrlarni tayyorlash;
- kripto-aktivlar bo'yicha faoliyat va «blokcheyn» texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotda loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun "blokcheyn" texnologiyalarini ishlab chiqish sohasida faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali xorijlik mutaxassislarni jalb qilish;
- xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini hisobga olgan xolda "blokcheyn" texnologiyalarini joriy etish uchun zarur huquqiy bazani yaratish;
- raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash;
- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etish;
- hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish uchun tegishli oliy ta'lim muassasalari biriktiriladi hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o'qitiladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida Internet va IT sohasining hissasi yuqori, albatta. Juhon bankining "Raqamli dividendlar" nomli tadqiqoti xulosalariga ko'ra, internet tezligining 10 foizga o'sishi mamlakat Yalim o'sishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 1,21 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,38 foizga teng. Demak, internet tezligi 2 barobar oshadigan bo'lsa, Yalim hajmi 13-14 foiz ortishiga erishish mumkin [5]. Bu ko'rsatkichlar mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhim masala ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek 2021 yildan boshlab "blokcheyn" texnologiyalarini tatbiq etishda quyidagi sohalarga ustuvorlik berish belgilab qo'yildi:

- davlat organlari faoliyati, jumladan boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, davlat xaridlarini amalga oshirish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni verifikatsiyalash;

- davlat reyestrlari, klassifikatorlari va boshqa ma'lumotlar bazalarini yuritish, jumladan ularga kiritilgan axborotni yangilash va undan foydalanish;
- ustav fondida davlatning ishtiroki ustuvor bo'lgan yirik tijorat tashkilotlarining korporativ boshqaruvi tizimi, jumladan biznes-jarayonlarni takomillashtirish, ishlab chiqarish, ma'muriy va operatsion jarayonlarni maqbullashtirish, shuningdek, zamonaviy menejmentni tatbiq etish va resurslarni boshqarish;
- kliring operatsiyalari, to'lovlarni amalga oshirish, savdoga oid moliyalash (akkreditiv), shuningdek, loyihalarga kredit berish.

Raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish masalalarini yoki kriptovalyutalarni tushunish kerak emas. Albatta, Blokcheyn texnologiyasi, kriptovalyutalar ham raqamli iqtisodiyotning bir bo'lagi. Lekin raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) deganda, raqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi. Bunda, yashirin iqtisodiyotga barham berish vositasi sifatida ham qarash mumkin. Chunki birinchidan, barcha operatsiyalar elektron ro'yxatdan o'tilishiga, ikkinchidan shaffof bo'lishiga erishiladi. Qolaversa, ishlab chiqarishda yangi IT texnologiyalar qo'llanilishi tufayli mahsulot va xizmatlarning tannarxi pasayadi [3].

Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda avvalo shu sohaga kerakli kadrlar masalasini, ularni tayyorlaydigan ta'lim sohasiga e'tiborni qaratishni taklif qilgan holda, quyidagicha xulosa kilish mumkin:

- raqamli iqtisodiyot uchun kerakli bo'lgan yuqori malakali kadrlarni o'rta va oliy ta'lim muassasalarida tayyorlashni yo'lga qo'yish;
- raqamli iqtisodiyot to'grisida zamonaviy ilmiy va amaliy asarlar yaratish;
- zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mehnat bozorini tashkil qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- raqamli iqtisodiyot sohasidagi xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni respublika iqtisodiyotiga tatbiq qilish;
- elektron platformali texnologiyalardan foydalangan xolda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga milliy tizimlar yaratish.

Yuqorida aytib o'tilgan fikr va g'oyalarga asosan shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida bildirilgan takliflar raqamli iqtisodiyotga transformatsiyalashuvda to'siq bo'layotgan ayrim muammolarning bartaraf etilishida xizmat qilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagи “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3832-soni qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz))

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoniga
3. Benkler Y. The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom. New Haven, Conn: Yale University Press, 2006. 515 r.
4. Замышляев А. М. Эволюция цифрового моделирования // Наука и технологии железных дорог. – 2017. – № 1. – С. 82–91.
5. <https://review.uz> saytidan.
6. Mardievna S. G., Boltaevna S. F. The role of public-private partnerships in attracting investment projects in the transport sector //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. – 2021. – Т. 27. – №. 6
7. F.B. Shakirova, S.B Sattorova STRATEGY OF ENTERING INTERNATIONAL MARKETS OF " UZBEKISTAN RAILWAYS" JSC INDUSTRIAL ENTERPRISES FBSSB Sattorova - Conferencea, 2022

**JIGAR SERROZI KASALLIGI VA UNING ALOMATLARI**

**Rakhimova Laylo Abduraxmanovna**

*Respublika Ilmiy Onkologiya va Radiologiya Ilmiy Amaliy Markazining  
Toshkent Shahar filiali(RIO va RIATM)*

**Ruziyev Abbas Abduraxmanovich**

*Yadro va tibbiyot markazi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola “Jigar serrozi va uning alomatlari, kelib chiqish sabablari, kasallikning oldini olish, shu bilan birgalikda jigar serrozi kasalligining turli xil bosqichlari bu kasallikdan saqlanish haqida bat afsil ma'lumotlar berilgan”.

**Kalit so'zi:** Serroz, surunkali, Gepatit, to'qima, symptom, loqadylilik.

Jigar — tanamizdagi eng katta ahamiyatga ega bo'lgan organlardan biridir. U ovqatni hazm qilishga yordam beradi, hayot uchun zarur bo'lgan moddalarni sintezlaydi, organizmdan toksinlarni siqib chiqaradi. Mabodo jigar ishlashdan to'xtasa, bu butun organizm uchun jiddiy muammolarni chaqirishi mumkin — o'limga olib boruvchi oqibatlargacha.

**Jigar sirrozi - *jigarning*** surunkali rivojlanib boradigan kasalligi; bunda jigar to'qimasi yallig'lanib, uning bir qismi biriktiruvchi to'qima bilan almashinadi. Jigarning o'tkir yallig'lanishi — **gepatitda**, uning **B, C, D** shakllarida, o'tkir gepatit surunkali gepatitga aylanayotganda, **bezgak, sil, zaxm, brutsellyoz** kabi yuqumli kasalliklarda, o't pufagi va o't yo'llarining surunkali yallig'lanishida, turli kimyoviy moddalardan muntazam zaharlanishda, shuningdek, **alkogolizmda** va boshqa sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Jigar sirrozi — sekin rivojlanadigan surunkali kasallik. Jigar sirrozi turlicha namoyon bo'ladi va u xastalikning qaysi shaklida kechishi hamda davriga bog'liq; tekshirganda jigarning qattiqlashgani va funksiyasining buzilganligiga qaramay, kishi uzoq vaqt hech qanday xastalik alomatini sezmay yurishi mumkin. Kasallik zo'rayganda bemor darmonsizlanadi, ozib ketadi, ishtahadan qoladi, kekiradi, ko'ngli ayniydi, ba'zan quсади, ichi ketadi yoki qotadi, qorni dam bo'ladi, tana xarorati ko'tariladi, qorin bo'shlig'ida suyuqlik to'planishi natijasida u ko'tariladi (istisqo), burni qonaydi, badani qichishadi, ba'zan sarg'ayadi; kamqonlik avjiga chiqadi; jigari va ayniqsa talog'i kattalashadi va qattiqlashadi.

Davoni vrach tayinlaydi. Jigar sirrozi uzoq vaqt davolanadi, kasallik zo'rayganda bemorni darhol kasalxonaga yotqizish kerak. Parhezga qat'iy rioya qilishning ahamiyati katta. Bemorga, asosan, yengil hazm bo'ladigan, qand, oqsil va vitaminlar (ayniqsa, C vitamin va B gruppaga boy sutli va o'simlik ovqatlar beriladi. Tvorog (oson hazm bo'ladigan oqsillarga ega), yog'siz go'sht, baliq, shuningdek, ozgina sariyog' bilan qaymoq yoki smetana iste'mol qilish mumkin; spirtli ichimliklar ichish

qatiy taqiqlanadi. Jigar sirrozining avj olishiga yo‘l qo‘ymaydigan dorilar buyuriladi. Jigar sirrozini davolashda avvalo unga sabab bo‘ladigan omillarni bartaraf etish muhim. Jigar sirroziga olib kelgan infeksiya aniqlansa, uni tugatish choralari ko‘riladi. Jigar sirrozining oldini olish uchun mehnat va turmush sharoitini sog‘lomlashtirish, alkogolizmga qarshi kurash olib borish kerak.

Jigar sirrozi simptomlari Ba’zi-ba’zida o’ng qovurg’alar ostida paydo bo‘ladigan og’riq. Og’riq ko’pincha jismoniy zo’riqishdan yoki qovurilgan, yog’li taomlar va alkagol iste’molidan keyin kuchayadi.

1. Og’izda achchiq ta’m va quruqlik hissi paydo bo’lishi, ayniqsa tong vaqtida.
2. Odamni surunkali ich ketishi va kuchli qorin dam bo’lishi (meteorizm) bezovta qiladi
3. Bemor birmuncha vazn yo’qotadi, tajang va tez charchaydigan bo’lib qoladi.
4. Kasallikning ba’zi formalari, masalan postnekrotik sirroz dastalabki bosqichni o’zidayoq yaqqol alomat teri sariqligini chaqiradi.

### Sirroz rivojlanishiga nima sabab bo‘ladi?

80 foiz hollarda sirroz spirtli ichimlik sabab kelib chiqqani bilan ayrim paytlarda uni og‘ziga olmagan odamda ham kasallik kuzatilishi va bunga quyidagilar sabab bo’lishi mumkin:

- surunkali virusli gepatit (B, C);
- o‘t yo‘li kasalliklari;
- dorilardan va kimyoviy zaharlanish;
- ratsionda oqsil va vitaminlarning surunkali tanqisligi;
- moddalar almashinuvi bilan tug‘ma jiddiy muammolarning borligi.

### Jigar sirrozini qanday qilib payqash mumkin?

Kasallik uch bosqichda bo‘ladi. Deyarli simptomsiz kechadigan birinchi bosqichdagi kasallikni faqatgina tahlillar bilan aniqlash mumkin. Bilirubin miqdori ortib, protrombik ko‘rsatkichining miqdori pasayadi. Agar kasallik shu bosqichda aniqlansa, parhez va turmush tarzini o‘zgartirish orqali uning rivojlanishini sekinlashtiradi. Ikkinchi bosqichida ham kasallikning rivojlanib ketishini sekinlashtirsa bo‘ladi. Aynan shu sabab ham quyidagi simptomlar kuzatilganda zudlik bilan shifokorga murojaat qilish kerak.

- holsizlik;
- apatiya (loqaydlik);
- bosh og‘rig‘i;
- ko‘ngil aynishi;
- diareya;
- o‘ng qovurg‘a ostida diskomfot;
- burun qonashi;
- milkarning qonashi;

- soch to‘kilishi.

Uchinchi bosqich terminal hisoblanadi. Bunda faqat biriktiruvchi to‘qimalardan iborat bo‘lib qolgan jigar bironta ham vazifani bajara olmaydi va sirrozga xos keng tarqalgan simptomlar: terining sarg‘ayishi, qorinning shishishi va kattalashishi, yuz va oyoqlar shishishi kuzatiladi.

### Sirrozni davolash mumkinmi?

Ushbu kasallikning davolashning yagona radikal usuli – jigar ko‘chirib o‘tkazish hisoblanadi. Lekin bиринчи yoki иккинчи bosqichlarida aniqlansa uni sekinlashtirish va rivojlanishini oldini olish mumkin.

### Mavzuga doir:

- Jigarning yog‘ bosishi: o‘tkazib yubormaslik kerak bo‘lgan 8 ta alomat
- Oshqozon yarasi kasalligidan darak beruvchi 8 simptom
- Jigar faoliyatiga zarar yetkazadigan 5 odat

Ko‘pincha kasallangan jigar juda uzoq vaqtgacha biron bir signal bermasligi mumkin, shuningdek kasallik belgilarini namoyon bo‘lishi ham juda xilma-xil bo‘ladi.

### Adabiyotlar ro’yxati

1. Qodirov E.Q. Odam anatomiyasi. Lotin. Toshkent. —Universitet|. 2007, 276 bet.
2. Qodirov E.Q. Odam anatomiyasi. Kiril. Chinor ENK; Toshkent, 2003. 220 bet.

### *Qo’shimcha adabiyotlar*

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O\_zbekiston nashriyoti, 2017.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, O\_zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O\_zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O\_zbekiston nashriyoti, 2016. Mirziyoev

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DAVRIDA ADABIY MUHIT VA  
UNING MANBALARI

*Umarov Najmiddin Maxamatali o'g'li  
Andijon Davlat Universiteti Tarix yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan shakllangan Hindiston turkiy adabiyoti uning avlodlari tomonidan rivojlandi, gullab-yashnadi. Maqolada Bobur va boburiylar saroyi atrofida Hindistonda shakllangan adabiy muhit, mazkur adabiy muhitning vakillari, turkiy tildagi ijodkorlar haqidagi ma'lumotlar "Boburnoma" (Bobur), "Humoyunnoma" (Gulbadanbegim), "Tarihi Rashidiy" (Mirzo Haydar), "Muzakkiri ahbab" (Hasanxoja Nisoriy), "Majolisi Jakhongiriy" (Qosim Lohuriy), "Ravzat us-salotin" (Fakhriy Hiraviy), «Nafoisul-maosirot» kabi adabiy-tarixiy manbalardagi ma'lumotlar asosida umumlashtirildi. Shu jarayonda mavzuga doir olib borilgan tadqiqotlarga ham munosabat bildirildi.

**Kalit so'zlar:** Adabiy muhit, Bobur adabiy muhiti, Buyuk boburiylar sultanati, Hindistondagi turkiy adabiyot, ikki tillilik, adabiy-tarixiy manbalar.

**Аннотация:** Индийская турецкая литература, созданная Захириддином Мухаммадом Бабуром, развивалась и процветала его потомками. В статье представлена информация о литературной среде Индии вокруг Бабура и дворца Бабуридов, представителях этой литературной среды, художниках на турецком языке «Бобурнома» (Бобур), «Хумоюннома» (Гульбаданбегим), «Тарихи Рашидий» (Мирзо Хайдар), «Музаккири ахбоб» (Хасанходжа Нисари), «Маджолиси Джаконгирий» (Касим Лохурый), «Равзат ус-салотин» (Фахрий Хирави), «Нафоисул-маосирот» и другие исторические и исторические источники. В процессе исследования были также даны комментарии.

**Ключевые слова:** литературная среда, литературная среда Бабура, Великое царство Бабури, турецкая литература в Индии, двуязычие, литературно-исторические источники.

**Abstract:** Indian Turkish literature, created by Zahiriddin Muhammad Babur, developed and flourished by his descendants. The article provides information about the literary environment of India around Babur and the Baburid palace, representatives of this literary environment, artists in Turkish "Boburnoma" (Bobur), "Humoyunnoma" (Gulbadanbegim), "Tarihi Rashidiy" (Mirzo Haydar), "Muzakkiri ahbab" (Hasanxoja Nisari), "Majolisi Jakhongiriy" (Kasim Lohuriy), "Ravzat us-salotin" (Fakhriy Khirawi), "Nafoisul-maosirot" and other historical and historical sources. Comments were also given during the research.

**Keywords:** literary environment, literary environment of Babur, Great Kingdom of Baburi, Turkish literature in India, bilingualism, literary and historical sources.

## KIRISH

Ma'lumki, adabiy muhit muayyan saroy atrofida ijod etgan yirik shoir va adiblar ta'sirida yuzaga keladi. Adabiy muhitning vujudga kelishi, albatta, yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog'liq. O'zbek adabiyoti tarixida Hirot, Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Samarqand va Xorazm adabiy muhiti va adabiy davralari mashhurdir. Adabiy muhit o'zbek adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi yirik vakili Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan ham bog'liq. XVI asrda Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan Hindistonda o'rnatilgan "Buyuk Boburiylar sultanati" qariyib uch asrdan ko'proq vaqt mobaynida Hindistonda har tomonlama ravnaq topgan davlat sifatida gullab yashnadi. Bobur nafaqat siyosiy arbob, shuningdek, ijodkor sifatida o'zidan katta va qimmatli meros koldirishi bilan birga, o'z atrofida ilm-fan, ijod ahlini birlashtirdi. Buning natijasida XV asrning oxiri XVI asrning birinchi choragidagi siyosiy va ijtimoiy voqealar hamda iqtisodiy tanglik girdobida bo'lgan Hindistonga Movarounnahr va Xurosandan fan, san'at va adabiyot namoyandalaridan iborat yangi bir guruh kirib keldi. Ma'lumki, 1526 yil 27 apreldan Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonning Panipat shahri atrofida Dehli sultanati hukmdori Sulton Ibrohimni (1517—1526) yengib, Shimoliy Hindistonda o'z hukmronligini o'rnatgach, Kobulga xat yozib, u yerda qolgan barcha qarindosh-urug'lari, din peshvolari va davlat arboblari, olimu shoirlar hamda butun haram ahlini Hindistonga chaqiradi. Bu tasvir "Humoyunnoma" asarida shunday ifodalangan: "Tevarak-atrofdagi hamma viloyatlarga elchilar jo'natilib, kimda-kim agar bizga kelib mulozimat qilsa, har tomonlama ra'iyat qilamiz, agar ular ichida ota-bobolarimizga xizmat qilgan kishilar bo'lsa, katta mukofotga sazovor bo'ladilar; Sohibqiron va Chingizzon avlodidan bo'lgan har bir kishi bizning dargohimizga qaytib kelsin; Xudo bizga Hindiston mamlakatini ato qildi, kelsinlar, to bu davlatni birga so'raylik, degan qat'iy buyruq yuborildi". [4.37] Gulbadanbegimning hikoya qilishicha, Kobuldan Hindistonga tashrif buyurganlar ichida Zahiriddin Bobur xonadoniga mansub 96 ta ayol ham bo'lgan. Ularning hammalariga turar joy va ko'ngillari tilagan in'omlar tayin qilingan. Xuddi shunday munosabat olimu shoirlar, ijodkorlarga ham loyiq topilgan. Temuriylar sultanatining qulashi, O'zbekxonlarning sultanat tepasiga kelishi, Xuroson va Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi talato'plar, adabiy muhitning ma'lum ma'noda parokandalashuvi kabi voqealar mahalliy aholining, ayniqsa, fan, san'at ahlining ma'lum bir qismi Hindiston sari azmi qaror qilishining asosiy sabablaridan biriga aylandi. E'tiborlisi, Bobur o'z faoliyati davomida uzliksiz jang-jadallarda yurganda ham adabiy davra suhbatlari, she'rxonliklar tashkil etishi, fan, san'at, madaniyat, adabiyot vakillariga alohida e'tibor qaratishi ko'pchilikka ma'lum edi. Shunday vaziyatda Zahiriddin Muhammad Boburning yuqoridagi kabi qarori e'tiborsiz qolmadidi. Turli soha vakillari qatorida ijodkorlar ham Bobur saroyiga kelib adabiy muhit vakiliga aylandi. Zahiriddin Muhammad Bobur bu kabi siyosiy harakatlaridan

tashqari, o‘zining realistik tasvirga to‘yingan lirik va epik asarlari bilan ham o‘z davri va o‘zidan keyin bir qancha ijodkorlarga adabiy ta’sir ko‘rsata oldi va Hindistonda turkiy tildagi adabiyotning vujudga kelishiga tamal toshini qo‘ydi. Bu adabiy muhitning rivojlanishi, gullab-yashnashi Bobur avlodlaridan Humoyun Mirzo (1530-40-1556), Akbar (1556-1605), Jahongir (Shahzoda Salim, 1605-1628), Shoh Jahon (Shahzoda Xurram, 1628-1658), Avrangzeb Olamgir (1658-1707), Muazzamshoh (Bahodirshoh I, 1707-1712), Jahondorshoh (1712-1713), Farrux Siyar (1713-1719), Muhammad Shoh (1719-1749), Ahmadshoh (1749-1754), Olamgir (1754-1759), Ali Gavhar (Shoh A’lam, 1759-1806), Akbarshoh (1806-1837), Bahodirshoh II (1837-1858) hukmronligi yillariga to‘g‘ri keladi. Bobur izdoshlari qisman hind, urdu, forstojik, arab tillarida yaratgan asarlari qatorida turkiy tildagi asarlari bilan tarixga muhrlandi. Jumladan, Bayramxon, Xumoyun Mirzo, Hindol Mirzo, Askariy Mirzo, Komron Mirzo, Abulqosim (Komron Mirzoning o‘g‘li), Azfariy, Forig‘iy, Diyda, Johila, Yusuf Faryobiy, Saminiy-Fahm, Manzariy Samarqandiy, Mir Mahmud Mahviy, Ulfatiy, Yazdiy, Tazarviy Abhariy, Sherazi, Fahmiy Kazviniy, Navidiy, Siyakiy kabi shoirlar Bobur asos solgan Hindiston turkiyzabon adabiyoti vakillaridir. “Majolisi Jahongiriy” (Qosim Lohuriy), “Ravzat us-salotin” (Faxriy Hiraviy), «Nafoisul-maosirot» kabi tarixiy, tazkira asarga tayanildi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda tashkil etgan adabiy muhit vakillari haqida ma’lumotlar, ularning adabiy merosi va undan namunalar bir qancha qo‘lyozmalar, tarixiy va adabiy manbalar orqali yetib kelgan. Jumladan, Boburning “Boburnoma”, Gulbadanbeginning “Humoyunnoma”, Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Abulfazl Allomiyning “Akbarnoma”, “Oyini Akbariy” (“Akbar tuzuklari”), Ahmad Hirotiyning “Tabaqoti Akbariy”, Jahongir bin Akbar “Jahongirnama”, Qosim Lohuriyning “Majolisi Jahongiriy”, Abdulqodir Badovoniyning “Muntaxab at-tavorix”, Abdulboqi Nihavandiyning “Maosiri Rahimiy”, Mirzo Olim Mushrufning “Ansob us-salotin” kabi tarixiy asarlari, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Mutribiy Samarqandiyning “Nusxai zeboyi Jahongir”, muallifi noma’lum bo‘lgan «Nafoisul-maosirot», Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin”, Sodiq Kitobdorning “Majma’ul-xavos”, Po‘lotjon Qayumiyning “Tazkirai Qayumi” tazkiralari mavzuga doir qimmatli ma’lumotlar va adabiy matnlarni o‘zida qamraganligi bilan ahamiyatlidir. Hindistondagi turkiy tildagi adabiyot haqidagi ilk ma’lumotlar Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida uchraydi. Garchi bu asarda yuqorida tilga olingan ijodkorlarning aksariyati nomlari uchramasa-da, asarning (“Boburnoma”ning – X.G.) Hindiston tasvirigacha bo‘lgan qismida tilga olingan Mavlono Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Abdulloyi, Mir Husayn Muammoiy, Mulla Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Shoh Husayn Komiy,

Hiloliy, Ahliy kabi ijodkorlar va ularning ijodi an'analarining targ'iboti ham bu yurtda Xuroson va Mavarounnahrdagi turkiy va forsiy tildagi adabiyot haqida tasavvur beradi. [5.138- 139] «Boburnoma»ning 1525-1526 yillar voqealari tafsiloti berilgan qismlari hamda undan keyingi saahifalarida ham tab'i nazmi bo'lgan yana bir qator shohu shahzodalar, amaldorlar, turli ijtimoiy tabaqadan yetishib chiqqan shoirlar nomi eslatiladi, ular faoliyatiga doir ayrim ishoralar yo'l-yo'lakay bo'lsa-da, o'rta ga tashlanadi. Manbalar ichida Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" va Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asarlari Bobur va uning adabiy izdoshlari tasvirining mufasalligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Hasanxoja Nisoriyning 1566 yilda yozilgan "Muzakkiri ahbob" tazkirasida Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun Mirzo, Bayramxon, Komron Mirzo, Xoja Kalonbek kabi turkiy va forsiy tilda ijod etgan shoirlar va ularning hind diyori bilan bog'liq faoliyati, ijod namunalaridan parchalar keltirilgan. Shuningdek, tazkirada Mirzo Askariy, Hindol Mirzo, Mirzo Abdulqosim ibn Komron, Nizomiddin Abulbaqo Hindiy, Shayx Boyazid Puroniy, Mavlono Shahobiddin Muammaoiy, Mavlono Fozil Andijoniy, Mavlono Vosifiy, Shayx Zaynuddin, Alibek, Mahram Ko'ka, Hamdam Ko'ka, Xojazodai Kobiliy, Mavlono Mahramiy, Amir Muzaffar Turkman, Novidiy Nishoburiy, Mavlono Jomiy Yatimbon, Xoja Yarko, Shayx Muhammad Tohir, Xoja Husayn Marviy, Qosim Arslon, Sahmiy, Qosim Koxiy, Mavlono Zarifiy kabi Markaziy Osiyoning turli viloyatlaridan, ayniqsa, Xuroson va Mavarounnahrdan Hindistonga, umuman, boburiylar huzuriga borgan ijodkorlar ham tilga olingan va forsiy tildagi she'riyatidan parchalar berilgan.[14] Lekin asarda bu ijodkorlarning turkiy tilda ijodi haqida ma'lumot kuzatilmaydi. Shunday bo'lsa-da, mazkur ijodkorlar Bobur va boburiylar atrofida birlashganlar hamda shu adabiy muhitning vakillari sifatida tarixda qolganlar. Muhammad Haydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" asarida ham Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ishonarli ma'lumotlar berilgan. Muallif Boburning xarakteri, fazilatlari, maqtovga loyiq jihatlari, ijodkorlik qobiliyati, adabiy merosi, tarjimonligi haqida gapirar ekan shunday yozadi: «U turli go'zal fazilatlar, maqtovga loyiq sifatlarga ega podshoh edi. Barcha sifatlari ichidashijoat va muruvvatpeshaligi ustun kelardi. Turkiy she'riyatda Mir Alisherdan keyin hech kim uningchalik ko'p yozmagan. U turkiyda ajoyib totli devon tartib bergen. "Mubayyin" nomli she'riy asar yaratgan – juda foydali kitob bo'lib, odamlar uni fiqh dasturamali sifatida qabul qilishgan. U "Turkiy aruzni yozganki, bunday yetuk asarni – turkiy aruzni ungacha hech kim bitmagan. Hazrat Eshon (Xoja Ubaydulloh)ning "Risolai Voldiya" asarini nazmiy tarjima qilgan. Uning "Vaqoe" ("Boburnoma") nomida turkiy tildagi tarixiy asari borki, u juda ainq, tushunarli, shirali, sof jonli tilda bitilgan. Undan ayrim parchalar mazkur "Tarix"da ham keltiriladi. Musiqiy va boshqa san'atlarda uning xonadonida ungacha bunday iqtidorli kishi bo'lmagan".[7. 250] Ushbu parchalardan ma'lum bo'ladiki, Bobur shijoatli, muruvvatpesha inson bo'lgan. Shoир, adabiyotshunos, tarjimon, fiqh

bilimdoni, o‘zbek narsining noyob va go‘zal namunasi bo‘lgan “Boburnoma”dek asarning muallifidir. E’tiborlisi shundaki, Muhammad Haydir Mirzo o‘z asarini yaratishda Boburning “Boburnoma”sidan bevosita o‘rni bilan foydalangan. Bu esa Muhammad Haydar mirzoning Bobur adabiy merosiga izdoshlik asosida yondashganligini ko‘rsatadi. Boburiylar davri madaniyatiga oid qimmatli ma’lumotlarni qamragan yozma yodgorliklardan biri Abdusattor bin Qosim Lohuriyning 1612 yili Agra shahrida yozgan “Majolisi Jahongiriy” nomli asari.[Qarang: 2] Asarda Hindistonning o‘sha paytlardagi Yevropa va Mavarounnahr davlatlari bilan siyosiy-diplomatik hamda madaniy aloqalari borasidagi ma’lumotlar havola etilgani holda, saroy muhitida turkiy (o‘zbek) tiliga alohida e’tibor qaratilganligiga ham urg‘u berilgan. Bu haqda adabiyotshunos Ismoil Bekjon shunday yozadi: “Chindan ham, o‘z tug‘ilgan vatani va ona tili mavqeini davlat, madaniy hayot maqomida tutgan Bobur vafotidan so‘ng Afg‘oniston, Hindiston kabi o‘lkalarda tug‘ilib o‘sgan keyingi boburiylar avlodida bu xislatlarning paydo bo‘lish jarayonini, bir tomondan, temuriylar sulolasining tarixiy shuhrati tufayli deb tushunib, ikkinchi jihatdan, bu holatni “Boburnoma”ning tarbiyaviy ahamiyati bilan bog‘lasak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz”. [2] Olim o‘z fikrlarini davom ettirar ekan, Jahongir bin Akbar “Jahongirnomha” asarida Kobulga ziyorat uchun borgani xotiralarini bayon etish asnosida Jahongirning katta bobosi Bobur podshoh tomonidan o‘z xati bilan ko‘chirilgan “Vaqoe”“sini o‘qib chiqqanini, Hindistonda tug‘ilib-ulg‘ayganiga qaramasdan, turkiycha so‘zlashish va yozishdan benasib emasligini ta’kidlagan, saroyda turkiy tilni o‘qituvchi muallimlar haqida ham ma’lumot bergen. Ko‘rinadiki, Hindiston turkiy adabiyotining saroy atrofida rivoj topishida boburiy hukmdorlarning xizmati beqiyos bo‘lgan. Manbalardan yana biri «Nafoisul-maosirot» nomli tazkira. Bu asar biz uchun yana shu bilan ham qimmatlik, unda Hindistonga safar qilgan hamda u yerda turg‘un bo‘lib qolgan ko‘pgina mashhur o‘rtasosiylik shoir va mutafakkirlar, jumladan, Bazmiy, Manzariy Samarqandiy, Judoiy Termiziyy, Sahmiy Buxoriy, Mavlono Baqoiy Buxoriy, Badi‘i Samarqandiy, Mushfiqiy, Nixoniy va boshqalar haqida ma’lumot va axborot yozib qoldirilgan.[8.50-51] «Nafoisul-maosirot» 1904 yili Xorazmda yetuk olim Mulla Sayyid Abdullo bin Avazxo‘ja Eshon tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Asarning tarjimasini Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zFAShI xazinasida (inv.№810) saqlanadi. Yana bir manba Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” asaridir. Yetti bobdan iborat ushbu tazkiraning “She’rga mayl kursatgan va (she’r) aytgan Samarkand va Xurosonning Amir Temur Kuragon avlodidan bo‘lgan sultonlari zikrida” nomli uchinchi bobida Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh va uning avlodlari, yaqinlaridan Muhammad Nosir Mirzo, Muhammad Humoyun podshoh, Komron Mirzo, Muhammad Askariy Mirzo, Muhammad Hindol Mirzo, Mirzo Haydar kabilar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.[10. 68-75] Lekin ushbu ijodkorlardan Zahiriddin Muhammad Bobur va

Komron Mirzoning turkiyda ijod etganligi qayd etilgan, xolos. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur “... turkiy va forsiy ash’orda va aruz va qofiyada yuksak mahorati bor edi... Forsiyda ham ravon va aniq ayta olardi. Ammo turkiy she’riyatga moyilroq edi” [10. 68] deya ta’riflanib, ijodidan bir bayt keltirilsa, Komron Mirzoga “... so‘z iqlimida tab’ va dilpazir nazm javohirida turk va tojikning xusravidir” [10.71] deb baho beriladi. Lekin uning turkiy she’riyatidan namunalar keltirilmagan.

### XULOSA

Boburning serqirra ijodi va uning davridagi saroy adabiy muhiti ko‘pgina safdosh va yosh qalamkashlarni ilhomlantirib, Hindiston turkiyzabon adabiyotining ravnaqi uchun mustahkam asos yaratdi. Boburning ijodiy va siyosiy faoliyatining eng muhim jihat shundaki, shoh Bobur umrining so‘nggi yillaridagi orzusi – butun Hindistonni yagona kuch ostida birlashtirishga ulgurmagan bo‘lsa ham, ammo shoir Bobur o‘z xalqi adabiyotini osmono‘par Himolay tog‘laridan olib o‘tib, uning badiiyatini Hindistonda kengaytirish sharafiga muyassar bo‘ldi. Turkiygo‘y shoirlarning aksariyati o‘z tillari qatori ayni vaqtida forsiyda ham qalam surganlar.

### REFERENCES

1. Азимджанова С. Индийский диван Бабура. – Т.: «Фан», 1966.
2. Бекжон И. Бобурийлар маданиятига оид манба://«Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси, 2013 йил 23-сон.
3. Вохидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. Адабий ўйлар. –Т.: “Маънавият”, 2008. – Б.120.
4. Гулбаданбеким Захириддин Бобур қизи. Хумоюннома. //Форс тилидан С.Азимжонова тарж.- Т.: “Маънавият”, 1998. – Б.104.
5. Захириддин Мұҳаммад Бобур. Бобурнома. “Шарқ”, -Т.: 2002. – Б.336.
6. Иномхожиев Р. XVI аср Ҳиндистон адабий ҳаётида туркий-форсий икки тиллилик. –Т.: Фан, 1993. – Б.208.

**TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
<b>1</b>	ATROF-MUHIT HAMDA EKOLOGIK TA'LIM	<b>3</b>
<b>2</b>	O'ZBEKISTONGA INTRODUKSIYA QILINGAN MAYMUNJON (RUBUS) TURKUMI TURLARINING BIOEKOLOGIYASI	<b>5</b>
<b>3</b>	7-12 YOSHLARDAGI BOLALARNING TANASINING ANTROPOMETRIK KO'RSATKICHLARI	<b>9</b>
<b>4</b>	OITS BILAN KASALLANGAN ONALARDAN TUG'ILGAN 7-12 YOSHLARDAGI BOLALARNING ANTROPOMETRIK KO'RSATKICHLARINI O'ZGARISHLARI	<b>11</b>
<b>5</b>	ОСОБЕННОСТИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ У СЛЕПЫХ ДЕТЕЙ	<b>16</b>
<b>6</b>	GIPOTERIOZ HOLATIDA AYOLLAR BACHADONINING O'ZGARISHLARI	<b>19</b>
<b>7</b>	THE ROLE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION COMPETENCE IN ENGLISH TEACHING	<b>22</b>
<b>8</b>	ТЕПЛОФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА АЛКИЛРЕЗОРЦИНОВЫХ ПОЛИМЕРНЫХ КОМПОЗИЦИЙ	<b>27</b>
<b>9</b>	XMLDA MA'LUMOTLAR BAZASINI TASVIRLASH	<b>30</b>
<b>10</b>	AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASHNING TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI	<b>34</b>
<b>11</b>	MA'LUMOTLAR BAZASIDA MURAKKAB QIDIRUV TIZIM USULLARI VA ALGORITMLARI	<b>38</b>
<b>12</b>	MA'LUMOTLARNI MANTIQIY IZLASH MODELI, USULI VA ALGORITMLARI	<b>41</b>
<b>13</b>	NOSQL MA'LUMOTLAR BAZASI VA UNING ASOSIY PRINSIPLARI	<b>44</b>
<b>14</b>	JIGAR EXINOKOKKOZ KASALLIGIDA JARROHLIK ASPEKTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	<b>48</b>
<b>15</b>	GIMNASTIKA VOSITALARINI QO'LLAGAN HOLDA MAHALLALARDA WORK OUT MAYDONCHASIDA JISMONIY TARBIYA MASHGULOTLARINI TASKIL ETISH USULLARI	<b>54</b>
<b>16</b>	MAKTAB O'QUVCHILARINI JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT BAYRAMLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH	<b>57</b>
<b>17</b>	СУФОРИЛАДИГАН БУГДОЙЗОРЛАРДАГИ БЕГОНА ЎТЛАРНИ БУГДОЙНИНГ ФУЗАРИОЗ КАСАЛЛИГИНИ РИВОЖЛANIШИ ВА ХОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ	<b>64</b>

18	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MULOQOT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVISTIK ASOSLARI	73
19	QANDLI DIABET KASALLIGIDA BRONX DEVORI SHILLIQ PARDASI EPITELIYSINING MORFOLOGIK HUSUSIYATLARINI O'RGANISH	76
20	ЧАККА-ПАСТКИ ЖАФ БЎҒИМИ КАСАЛЛИКЛАРИНИ ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА АДАБИЁТЛАР ШАРХИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ СТОМАТОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ	79
21	ТИШ ҚАТОРИДАГИ АНОМАЛИЯ ВА ДЕФОРМАЦИЯНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИНИ АМАЛИЁТГА ТАДБИҚ ҚИЛИШ	86
22	ЖАФ ПРОТЕЗЛАРИ ВА ОБТУРАТОРЛАРНИНГ ГИГИЕНИК ХОЛАТИНИ БАҲОЛАШНИНГ УСУЛЛАРИГА АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ	89
23	ЧАККА-ПАСТКИ ЖАФ БЎҒИМИ ДИСФУНКЦИЯСИ ВА ТИШЛОВ АНАМАЛИЯЛАРИГА АДАБИЁТЛАР ШАРХИ	92
24	ИМПЛАНТАТЛАРНИНГ ИНСОН ҲАЁТЧАNLIGIGA ТАЪСИРИ	95
25	ТИШСИЗ ПАСТКИ ЖАФ СУЯК ТЎҚИМАСИ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ СУЯК ИЧИ ТИШ ИМПЛАНТЛАРИГА АСОСЛАНГАН ОЛИНАДИГАН ПРОТЕЗЛАР БИЛАН ЎЗАРО ТАЪСИРИ	98
26	THE CLASSIFICATION OF POLYSEMY AND VARIATION IN ENGLISH VERBS	102
27	CHO'L YAYLOVLARI TUPROQLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA HOSILDORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI	105
28	PROMOTION OF PUBLIC DIPLOMACY IN THE ERA OF THE CREATION OF THE 3RD RENAISSANCE THROUGH THE EYES OF YOUTH	108
29	ТЕПЛОФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА АЛКИЛРЕЗОРЦИНОВЫХ ПОЛИМЕРНЫХ КОМПОЗИЦИЙ	111
30	MUNIS DEVONINING TARKIBIY QISMI VA MUMTOZ ADABIYOTDAGI AHAMIYATI	114
31	FARG'ONA VODIysi NIKOH TO'Y MAROSIMLARIDA MILLIYLIK VA O'ZIGA XOSLIK	120
32	CHARLZ DIKENSNING "NIKOLAS NIKLBINING SAYOHATLARI" ASARI BILDUNGSROMAN (TARBIYA ROMANI) SIFATIDA: JANR POETIKASI MUAMMOLARI	124
33	THE USE OF EMOTIONS IN AMERICAN AND ENGLISH LITERATURE	128
34	YOSHLARGA YARATILGAN IMKONIYATLAR, NAMANGAN VILOYATIDA YOSHLARGA BERILAYOTGAN KO'MAK, E'TIBOR...	131
35	THE IMPORTANCE OF LISTENING SKILLS IN LERNING ENGLISH ONLINE	134
36	TA'LIMDA IMMERSIV YONDASHUV	138

37	ВЛИЯНИЯ ИНВЕСТЦИЙ И ИННОВАЦИЙ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РОСТ	142
38	IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI	147
39	JIGAR SERROZI KASALLIGI VA UNING ALOMATLARI	151
40	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DAVRIDA ADABIY MUHIT VA UNING MANBALARI	154



**JOURNAL OF  
NEW CENTURY  
INNOVATIONS**

**IN ALL AREAS**

